

“TBC Bank” ATBning qo‘shimcha imtiyozlar dasturi
“Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun
tarif rejalar bo‘yicha bonus”

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Tarif rejalar bo‘yicha bonus;
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari;
6. Bankning huquq va majburiyatlari;
7. Mas’uliyat;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa qoidalar.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun tarif rejalar bo‘yicha bonus” qo‘shimcha imtiyozlar dasturining (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) qoidalari Dasturning shartlarini hamda Bank mijozlarining ushbu Dasturda ishtirok etish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur qoidalari lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi. Dastur ishtirokchilari Dasturda qatnashish bilan bog‘liq mulkiy xatarlarni o‘z zimmalariga olmaydilar.

1.3. Mazkur Qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy ofertadir. Ushbu Qoidalari Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan – www.tbcbank.uz.

1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2025-yil 15-iyun; Dasturning tugash sanasi: 2025-yil 1-sentabr, shu jumladan. Dasturning amal qilish muddati: 2025-yil 15-iyundan 2025-yil 1-sentabrgacha.

1.5. Dastur o‘tkaziladigan joy: O‘zbekiston Respublikasi hududida.

1.6. Dastur amal qilish muddati davomida ushbu Qoidalarning 4-bo‘limida nazarda tutilgan Tarif rejalaridan birini Dastur muddati tugaguniga qadar muvaffaqiyatli ulagan verifikatsiyadan o‘tgan istalgan Bank Mijozi Dastur ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

1.7. Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanish, Tariflarni ularash tartibi va shartlari “TBC Bank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlarida (keyingi o‘rinlarda “KBX” deb ataladi) va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali tanishish mumkin bo‘lgan Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalarida nazarda tutilgan.

1.8. Dastur amal qilish davrida Bank Mijozining ushbu Qoidalarning 4-bo‘limida nazarda tutilgan Tarif rejasini ulashi Mijozning ushbu Dastur shartlariga to‘liq va so‘zsiz roziligin anglatadi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Dastur	“TBC Bank” ATBning “Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun tarif rejalar bo‘yicha bonuslar” qo‘shimcha imtiyozlar dasturi
Bank Mijozi	KBXda nazarda tutilgan Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.
Ishtirokchi	Dastur ishtirokchisi sifatida ushbu Qoidalarning shartlariga javob beradigan Bank Mijozi.
KBX	“TBC Bank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlari

Tariflar	KBXda nazarda tutilgan Bank xizmatlari uchun belgilangan Tarif rejalarini va boshqa tariflar majmuisi.
Bonus	KBX shartlarida belgilangan ma'lum bir Tarif rejasini tanlash va ularshda Bank o'z Mijozlariga beradigan qo'shimcha imtiyozlar va afzalliklarni ifodalaydi.

3. DASTUR TASHKILOTCHISI

- 3.1.** Dasturning tashkilotchisi Bank hisoblanadi.
- 3.2.** Bankning bog'lanish uchun ma'lumotlari: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta manzili: contact@tbcbank.uz

4. TARIF REJALARI BO'YICHA BONUS

- 4.1.** KBXda nazarda tutilgan "Biznes" yoki "Business Pro" tarif rejalaridan birini ulagan Mijozlarga quyidagi bonus taqdim etiladi:

- Bulk transfers (bir nechta qabul qiluvchilarga o'tkazmalar)** - mablag'larni bir vaqtning o'zida bir nechta manzilga o'tkazish imkoniyati bo'yicha texnik funksiya. Tegishli tarif rejasini ulanganda kirish avtomat ravishda taqdim etiladi va tegishli operatsiyalar bajarilganda faollashadi.

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1.** Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
- Bankning qoidalari va shartnomalari bilan belgilangan hajmda va tartibda Dastur to'g'risida axborot olish;
 - ushbu Qoidalarning 1.6-bandida belgilangan talablarga riosa qilish sharti bilan ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomini olish.
- 5.2.** Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan oldindan tanishib chiqishi shart. Mijozning Dasturda ishtirok etishi uning Dastur shartlariga roziligin anglatadi va ushbu Qoidalalar bilan tanishganligining tasdig'i hisoblanadi.

6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1.** Bank Dasturni amalga oshirishi, shuningdek, Mijoz ushbu Qoidalarning 4-bo'limida ko'zda tutilgan Tarif rejasiga ulanganida Bonus taqdim etish majburiyatlarini bajarishi shart.

- 6.2.** Ushbu Dastur mazkur Qoidalarning 1.4-bandiga muvofiq butun Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas.

- 6.3.** Bank har oyda Ishtirokchilarga oldindan xabar bermasdan ushbu Dasturning amal qilish muddatini bir tomonlama uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Agar Bank Dasturni to'xtatish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, Ishtirokchilar mavjud aloqa kanallari orqali tegishli bildirishnomaga bilan xabardor qilinadi.

- 6.4.** Bank Dastur ishtirokchilarini identifikatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni o'tkazish uchun so'rov nomasi o'tkazish yoki boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.

- 6.5.** Bank Dastur shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish va Dastur to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida, shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7. MAS'ULIYAT

- 7.1.** Ushbu Qoidalarning 4-bo'limida nazarda tutilgan ma'lum Tarif rejasini ularsh uchun Bank tomonidan Mijozlarga Bonus berish majburiyati Mijoz ushbu Qoidalarning 4-bo'limida nazarda tutilgan Tarif rejalaridan birini ulagan vaqtida boshlab bajarilgan hisoblanadi.

- 7.2.** Bank Dasturning amal qilish muddati davomida tizimlardagi texnik nosozliklar, uzilishlar, xatolar tufayli yuzaga kelgan ushbu Qoidalari bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgar

bo‘lmaydi.

7.3. 7.2-bandda ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, Bankning texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, uzilishlar va nosozliklarni bartaraf etish muddatlari va sanalarini mustaqil ravishda belgilash huquqini o‘zida saqlab qoladi.

7.4. Uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo‘limgan xatti-harakatlari natijasida Bank tomonidan ushbu Qoidalarning shartlarini bajarish imkoniyati bo‘limgan holatlarda Bank javobgar bo‘lmaydi.

7.5. Ushbu Qoidalalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar KBX, Bank va Mijozlar o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq barcha nizoli masalalar o‘zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar orqali do‘stona asosda hal etilishi kerak.

8.2. Tomonlar 8.1-bandga muvofiq nizo va kelishmovchiliklarni hal qilishga erishmagan taqdirda, nizo Bank ro‘yxatdan o‘tgan manzil bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qilinishi lozim.

9. BOSHQA QOIDALAR

9.1. Ushbu Qoidalalar 2025-yil 15-iyundan boshlab kuchga kiradi va 2025-yil 1-senabrgacha amal qiladi.

9.2. Ushbu Qoidalalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz

9.3. Dastur ishtirokchilari yuqorida ko‘rsatilgan veb-saytda (yuqoridagi havola orqali) tegishli o‘zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari kerak.

9.4. Bank xodimlari, Bank bilan aloqador shaxslarning xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari mazkur Dasturda ishtirok etish huquqiga ega emas.